

O'ZBEKISTONDA BLINGVIZM VA SOTSIAL XOSLANISH JARAYONLARI

*Ruziyeva Madina Ilhom qizi,
ToshDO 'TAU Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter
lingvistikasi kafedrasi tayanch doktoranti
madinaruziyeva67@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda bilingvizm va sotsial xoslanish jarayonlari tahlil qilingan. Bilingvismning jamiyatdagi o'rni, uning ta'lif, mehnat bozori va madaniy integratsiya jarayonlariga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanilib, rasmiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar asosida bilingvizm darajasi hamda davlat til siyosatining natijalari baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadi, O'zbekistonda ikki va undan ortiq tillarni bilish sotsial xoslanish jarayonlarini kuchaytirib, iqtisodiy va madaniy integratsiyani rag'batlantirmoqda. Shu bilan birga, til siyosati va ta'lif tizimidagi o'zgarishlar ko'p tillilikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotning natijalari O'zbekistonda til masalasiga oid kelajakdagi tadqiqotlar va siyosiy qarorlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar. Bilingvizm, sotsial xoslanish, til siyosati, ko'p tillilik, integratsiya, indentifikatsiya.

O'ZBEKİSTAN'DA İKİ DİLLİLİK VE SOSYAL UYUM SÜREÇLERİ

*Ruziyeva Madina Ilhom kizi,
Taşkent devlet özbek dili ve edebiyatı üniversitesi doktora adayı*

Özet. Bu makalede Özbekistan'da bilingvizm ve sosyal entegrasyon süreçleri analiz edilmiştir. Bilingvizm toplumdaki yeri, eğitim, iş gücü piyasası ve kültürel entegrasyon süreçlerine etkisi incelenmiştir. Araştırmada nitel ve nicel analiz yöntemleri kullanılarak, resmi belgeler, bilimsel araştırmalar ve istatistiksel veriler temel alınarak bilingvizm seviyesi ve devlet dil politikalarının sonuçları değerlendirilmiştir. Sonuçlar, Özbekistan'da iki veya daha fazla dil bilmenin sosyal entegrasyon süreçlerini güçlendirdiğini ve ekonomik ve kültürel entegrasyonu teşvik ettiğini göstermektedir. Aynı zamanda, dil politikası ve eğitim sistemindeki değişikliklerin çok dilliliğin gelişimine etkisi bulunmaktadır. Araştırma sonuçları, Özbekistan'da dil meselelerine dair gelecekteki araştırmalar ve siyasi kararlar için önemli bir temel oluşturabilir.

Anahtar kelimeler. Bilingvizm, sosyal entegrasyon, dil politikası, çok dillilik, entegrasyon, kimlik.

ПРОЦЕССЫ БИЛИНГВИЗМА И СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Рузиева Мадина Илҳом кизи,
докторант Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы.*

Аннотация. В данной статье анализируются процессы билингвизма и социальной интеграции в Узбекистане. Изучено место билингвизма в обществе, его влияние на образование, рынок труда и процессы культурной интеграции. В исследовании использованы качественные и количественные методы анализа, на основе официальных документов, научных исследований и статистических данных оценены уровень билингвизма и результаты государственной языковой политики. Результаты показывают, что знание

двух и более языков в Узбекистане способствует усилению процессов социальной интеграции и стимулирует экономическую и культурную интеграцию. Кроме того, изменения в языковой политике и системе образования оказывают влияние на развитие многоязычия. Результаты исследования могут служить важной основой для будущих исследований и политических решений, касающихся языковых вопросов в Узбекистане.

Ключевые слова. Билингвизм, социальная интеграция, языковая политика, многоязычие, интеграция.

PROCESSES OF BILINGUALISM AND SOCIAL IDENTITY IN UZBEKISTAN

Ruziyeva Madina Ihom kizi,

a PhD candidate at Tashkent state university of the uzbek language and literature

Abstract. This article analyzes bilingualism and social integration processes in Uzbekistan. The study examines the role of bilingualism in society and its impact on education, the labor market, and cultural integration. Using qualitative and quantitative analysis methods, the research evaluates the level of bilingualism and the outcomes of state language policies based on official documents, academic studies, and statistical data. The results indicate that knowledge of two or more languages in Uzbekistan enhances social integration and promotes economic and cultural interaction. At the same time, changes in language policy and the education system influence the development of multilingualism. The findings of this study provide a valuable basis for future research and policy decisions regarding language issues in Uzbekistan.

Keywords. Bilingualism, social integration, language policy, multilingualism, integration, identification.

Globalizatsiya va migratsiya jarayonlari natijasida ko‘plab mamlakatlarda turli tillar va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri kuchaymoqda. O‘zbekistonda ham ko‘p millatli jamiyat shakllangani sababli bilingvism (ikki tillilik) keng tarqalgan hodisalardan biridir. Ushbu maqolada O‘zbekistonda bilingvismning mohiyati, uning ijtimoiy integratsiya (sotsial xoslanish) jarayonlariga ta’siri va kelajak istiqbollari tahlil qilinadi. Bilingvism – bir shaxs yoki jamiyatda ikki yoki undan ortiq tillarning faol ishlatilishi jarayoni bo‘lib, bu lingvistik va sotsiologik fenomen hisoblanadi. O‘zbekistonda davlat tili – o‘zbek tili bo‘lsa-da, rus tili, qozoq, tojik, qirg‘iz, qoraqalpoq va boshqa tillar ham aholining turli qatlamlari orasida keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, rus tili – ilm-fan, texnika, ishbilarmonlik va xalqaro kommunikatsiyada muhim o‘rin tutadi. Qoraqalpoq tili – Qoraqalpog‘iston Respublikasida rasmiy maqomga ega. Tojik tili – Samarcand va Buxoro viloyatlarida keng tarqalgan. Qozoq, qirg‘iz, turkman tillari – tegishli etnik guruuhlar orasida ishlatiladi. [2, 34b.]. O‘zbekistonda ta’lim tizimi o‘zbek tilida olib borilsa-da, ko‘plab oilalar va jamoalar ichida ikki tillilik (bilingvism) kuzatiladi. Sotsial xoslanish (ijtimoiy integratsiya) jamiyat a’zolarining umumiy ijtimoiy hayotga moslashuvi va faol ishtirok etish jarayonidir. Bilingvism bu jarayonda muhim omil bo‘lib, quyidagi jihatlarda aks etadi:

Madaniy ko‘prik vazifasini bajarishi - ikki yoki undan ortiq tilni bilish turli etnik guruuhlar orasidagi tushunishni yaxshilaydi [3,54b.]. Bilingvism odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi va diskriminatsiya xavfini kamaytiradi;

ta’lim va ish bozoridagi imkoniyatlarni kengaytirishi-ikki tilli bo‘lgan shaxslar yaxshi ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirishi-bilingvism davlat siyosatini tushunishda va aholining davlat tizimiga moslashishida yordam beradi. Ikki tillilik rasmiy hujjatlarni o‘zlashtirish va jamoat xizmatlaridan foydalanish jarayonini osonlashtiradi;

milliy identifikatsiya va tillararo muvozanatni saqlash – O‘zbek tilining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, boshqa tillarga hurmat saqlanishi lozim. Bilingvismni noto‘g‘ri

boshqarish ayrim tillarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin, shu sababli muvozanatli til siyosati muhimdir.

O'zbekistonda davlat til siyosati quyidagi yo'naliishlarni qamrab oladi:

O'zbek tilining rasmiy maqomini mustahkamlash – davlat va ta'lismizda o'zbek tilining nufuzi oshirilmoqda;

ko'p tillilikni qo'llab-quvvatlash – rus, ingliz va boshqa tillarni o'rghanish uchun sharoit yaratish;

ta'linda bilingvistik yondashuv – ko'p tilda ta'lismizda berish imkoniyatlarini kengaytirish.

O'zbekistonda bilingvism ijtimoiy xoslanish jarayonlarining ajralmas qismi bo'lib, u turli etnik guruqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat til siyosatini muvozanatli olib borish va barcha tillarning rivojlanishiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ko'p tillilik madaniyatini rivojlantirish orqali O'zbekiston yanada ochiq va integratsiyalashgan jamiyat sari harakat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беликов В., Крысин Л. Социолингвистика. - М., 2001. Москва. С. 209.
2. Usmonova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. - Toshkent, 2014. B.87.
3. Dadaboyev H., Usmonova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. - Toshkent, 2014. 54-56b
4. Бердалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Хўжанд, 2015. B.110
5. Z.Aliqulov, S.Boymirzayeva Sotsiolingvistika – Samarqand, 2009. 43-46 b.
6. Белл Р. Социолингвистика. -М., 1980. C.115
7. <http://en.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika>
8. <http://www.krugosvet.ru>